

## INKLYUZIV TA'LIM BERISHNING ZAMONAVIY USULLARI

**Haydarova Dilnoza Ilhomjon qizi**

*Toshkent shahar Bektemir tumani 289-IDUM maxsus pedagogi*

**Annotatsiya:** *Inklyuziv ta'linda o'qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo o'qituvchi inklyuziv taffakkurga ega bo'lishi va ta'lim sifati ma'suliyatini o'z zimmasiga olishi shart, o'qituvchi o'quvchilarining turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi kerak.*

**Kalit so'zlar :** *inklyuziv ta'lim, nogironlik, maxsus ta'lim.*

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson, Huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani paptifikatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bunda butun dunyo qariib bir milliardga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslar borligi haqida o'ylab fikr yuritsak bu nihoyatda ahamiyatlige ekaniga amin bo'lamiz.

Nogironlik:

1. Jismoniy nogironlik- Orqa miya shikastlanishi, miya yarim palsi, poliomielit, amputatsiya, mushak distrofiyasi, ALS, moxov, skolioz, Imperfekta osteogenez, revmatizm
2. Ko'rish nogironligi- To'liq ko'rmaslik, zaif ko'rish, daltonik
3. Eshitish nogironligi- To'liq kar, eshitish qiyin
4. Nutqiy nuqsonlik -Afaziya, Turet sindromi, duduqlanish
5. Aqliy nogironlik- Daun sindromi, dimentsiya, Parkinson kasalligi, gipermiya disfunktsiyasi
6. Rivojlanish nogironligi (ijtimoiy-emotsional nogironlik)- ASD, DEHB, SLD, Asperger sindromi, Rett sindromi, selektiv mutizm
7. Psixojitmoiy nogironlik (psixiatrik nogironlik)- Shizofreniya, klinik depressiya, bipolyar buzulish, vos-vos, moslashish buzilishi, giyohvandlik

Nogironligi bo'lgan insonlarga uzoq muddatli jismoniy, aqliy, intellektual yoki hissiy nuqsonlari bo'lganlar kiradi. Ulardagi turli xil cheklolvar jamiyatda boshqalar bilan teng ravishda, to'liq va samarali ishtirok etishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Butun dunyoda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan achinish, rahm-shavqat munosabatigina emas, balki ular bir o'zлari mustaqil ravishda yenga olishlari mumkin bo'limgan to'siqlarning atrofdagilar tomonidan tushunilishi, ularni yengish uchun imkon beruvchi sharoitlar yaratish lozim inklyuziv ta'lim buni amaldagi ko'rinishi. Inklyuziv ta'lim rasmi ta'lim tushunchasidan ancha kengroq bo'lib, bu ta'linda ko'proq o'qishga o'rganishga imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlaydi.

Inklyuziv ta'limning maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvini

hamda to’laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o’rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat

Inklyuziv ta’limning vazifalari barcha bolalarga teng munosabatda bo’lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish; Alovida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar muammolariga nisbatan bag’rikenglik munosabatini shakllantirish; Ta’lim jarayonida alovida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish; Alovida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ularni psixologikpedagogik jihatdan qo’llab-quvvatlash.

Bu jarayonda asosiy og’irlilik o’qituvchiga tushadi. Inklyuziv maktab o’qituvchisi va inklyuziv bog’chada tarbiyachi qanday sifatlarga ega bo’lishi kerak? Avvalo o’qituvchi inklyuziv taffakkurga ega bo’lishi va ta’lim sifati ma’suliyatini o’z zimmasiga olishi shart. Inklyuziv ta’lim berish o’qituvchilar ish sifatining asosiy mezonlari -o’qituvchi o’quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi kerak. O’qituvchi —butun maktab jaomosi bilan hamkorlikni yo’lga qo'yishi kerak. Chunki o’qituvchilar uchun hamkorlik va o’zarो fikr almashish muhimdir. Alovida ta’lim ehtiyoji bor bolalarning intizomli va muasasalararo guruhrilar bilan samarali ishlashlari uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo’llashi muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo’lga qo'yishi kabi xislatlarga ega bo’lishi kerak. Maxsus ta’limda bolalar aqliy jismoniy tashqi ko’rinishiga muofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta’lim bolaning qobiliyati va imkoniyatiga ko’ra belgilanadi. Inklyuziv ta’limda bola va o’qituvchi bir birini o’rganadi va muammolarini birgalikda hal qilishadi. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish nuqtai nazaridan, kasbiy qobiliyatlarga yangi talablarning paydo bo’lishi, o’qituvchi faoliyati sezilarli darajada murakkablashmoqda. Kasbiy faoliyat o’qituvchining ta’limotidagi o’zgarishlarga psixologik tayyorgarligining o’ziga xos xususiyatlari bilan bog’liq.



Inklyuziv ta’limning maqsadi — alovida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo’llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to’siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi

hamda to’laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rtalim berishni ta’minlashdan iborat.

Maktablar alohida ta’lim olish ehtiyoji bo’lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo’naltirishda har tomonlama yordam ko’rsatadi.

Inklyuziv ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat:

rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo’lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;

ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlanish;

barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq umumiy o‘rtalim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsiyal-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko’nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metod va vositalarini qo’llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo’llab-quvvatlashdan iborat.

Inklyuziv ta’lim – umumta’lim jarayonini rivojlaniradi va barcha bolalarga mos bo’lgan ta’limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim olishga oid qo’shimcha moslamalarni tashkil qilib, bolalarni ta’lim olishga qulay sharoit yaratadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ta’lim tizimida o‘qitishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek ular o’z oilasidan uzoqda bo‘lishga majbur bo’ladilar, bu esa ular fe’l-atvorlarida turli sa’lbiy illatlarning shakllanishiga turtki bo’ladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o’rganib qoladilar, o’z-o’ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari, juda ko’p maxsus ehtiyojli bolalar ayrim sabablarga ko’ra, masalan, ota-onalarni maxsus maktab-internatlarga yubormasligi sababli ta’limdan chetda qolib ketmoqdalar. Alohida ehtiyojli bolalarning otaonalarini xohish-istiklarini inobatga olgan holda va ta’limdagagi tenglik huquqini kafolatlash maqsadida Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobilyatlariga ko’ra maxsus yoki umumta’lim tizimida ta’lim olishni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta’lim siyosati amalgalashirilmoqda.

## XULOSA

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi ta’limni boshlash imkoniyatiga ega bo’lgan barcha bolalar, shu jumladan alohida yordamga muhtoj bo’lgan bolalarni umumta’lim

jarayoniga qamrab olishdir. Inklyuziv ta’lim alohida yordamga muhtoj bolalarga ta’lim olishni taqdim etishi bilan katta ahamyatga ega. Bu ana shunday bolalarni uzlucksiz umumiy ta’lim tizimiga kiritishni bildiradi. Ko’p hollarda alohida yordamga muhtoj bolalarning otaonalari o’z bolalarining ta’limga oid huquqlari va boshqa imkoniyatlari haqida noto’g’ri tushunchaga ega bo’lganlari natijasida bu bolalarga to’g’ri ta’lim berishni talab qilmaydilar. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga qabul qilishni o’quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko’roq o’quvchilarni qamraydigan yangi o’qtish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi. Umuman olganda, inklyuziv ta’limni O’zbekistonda joriy qilishni yana bir afzallik tomoni shundaki, maxsus ta’lim muassasalari mavjud bo’lmagan joylarda ham imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim tizimiga to’liq jalb qilinishiga imkoniyat yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

:

1. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonun yangi qonuni. 23 sentabr 2020 yil Sh.Mirziyoyev.
2. SH.A.Amonashvili va b. ”Pedagogik izlanish” Toshkent “O’qituvchi” 1990yil. 608 b.
3. M.G.Davlatshin “Ta’limning psixologik asoslari” Toshkent “O’qituvchi” 2000 yil 20 b.
4. Mirzaev, O. (2022). THE ROLE OF ETHICS AND AESTHETICS IN THE
5. FORMATION OF ENTREPRENEURIAL RELATIONS BETWEEN INDIVIDUALS. Science and innovation, 1(B6), 125-130.
6. Nargiza, Q. (2022). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA LOGOPED ISHINING OLIB BORILISHI. PEDAGOGS jurnali, 22(2), 52-54.